

“Men va dugonam” portreti yaratilishida portret janrida ijod qilgan rassomlar ijodiy ishlari ahamiyati.

Dilobar Abdullayeva
K.Behzod nomidagi MRDI
“Rangrasvir (dastgoxli)” magistratura mutahassisligi
2-kurs

Annotatsiya

Ushbu maqolada portret san’ati, ushbu janrda ishlash texnikasi va unda ijod qilgan rassomlar ishlari tahlilining “Men va dugonam” portretini yaratishdagi ahamiyati haqida so’z yuritiladi.

Аннотация

В данной статье освещается техника, методы исполнения жанра портрета. А также, значение анализов творческих работ других портретистов в создании портрета «Я и моя подруга».

Annotation

This article covers the technique, methods of execution of the genre of porte. And also, the value of the analysis of the creative works of other portrait painters in the creation of the portrait “Me and My Friend”.

Kalit so‘zlar : portret, rangtasvir, portretchi rassom, “Men va dugonam” , psixologik (ruhiy) portret, bayram portreti, guruhli portret. Intim portret., tarixiy mavzudagi portret;

Ключевые слова: портрет, живопись, портретист, «Я и моя подруга», психологический портрет, праздничный портрет, групповой портрет, интимный портрет, портрет в исторической теме.

Key words: portrait, painting, portrait painter, “Me and My Friend”, psychological portrait, festive portrait, group porteret, intimate portrait, portrait in a historical theme.

Portret –rangtasvirning bir turi hisoblanadi. Insonning ichki ruhiy olami bilan bog'langan holda aniq bir obraz yaratilishiga portret san'ati deb yuritiladi. Portret yaratish o'ziga xos murakkab jarayon bo'lib, insonning anatomic tuzilishidan tortib ichki ruhiy, ma'naviy holati, shuningdek, tashqi ko'rinishidagi barcha jihatlarini aks ettirishi bilan san'at darajasidagi asar bo'lishi mumkin. Portretchi rassom odamlarga xos turli harakatlarni his qila bilishi, ayniqsa, odamning qiyofasidagi samimiylilik yoki soxta jihatlarini tasvirlay olish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak. Inson obrazini yaratish tasviriy san'atda eng murakkab jarayon hisoblanadi¹.

Inson boshining murakkab shakllarini to'g'ri tasvirlay olish narsaning o'ziga qarab xaqqoniy rasm chizish mashqlarga asoslangan. Bu esa antic davrga mansub gipsdan yasalgan Dovud bosh bo'laklarini (ko'z, burun, lab, quloq) o'ziga qarab tasvirlash orqali boshning gipsdan yasalgan kesik shakli namunasini chizish, undan keyin esa, Antik davr gips bosh namunalari; Apollon, Venera, Diadumen, Gomer kabi bosh haykallarini o'ziga qarab tasvirlash mashqlari vositasida amalga oshiriladi. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, tasviriy san'atning portret janri o'zining ko'p asrlik tarixiga egadir. Bu janr haqida biz o'quv darsliklaridan, turli xildagi adabiyotlardan, rassomlar ijodidan chuqurroq ma'lumotga ega bo'lishimiz mumkin².

Har bir portret janrida ijod qiluvchi rassom inson portretini yaratishdan oldin o'z ustida muntazam ravishda ishlashi, mashq qilishi, akademik ta'lim saboqlarini mukammal o'rganishi talab qilinadi. Shu bilan bir qatorda, tasvirlanuvchi inson xarakterini o'rganish portretida inson ichki olamini ochib berishda birlamchi unsur hisoblanadi.

Musavvir o'z mahorati bilan bo'yoqlar majmuasida o'zi yaratayotgan obrazning tashqi qiyofasi orqali uning ichki kechinmalarini, ruhiy olamini ochib berishga intiladi.

Ayni paytda portret ham murakab janr bo'lib, u ham bir necha turlarga bo'linadi:

¹RaximXasanov.Tasviriysan'atasoslari. Toshkent. G'afurG'ulom.2009 yil.

²OlimSamadov.Tasviriysan'atdarsalaridaodamboshinitasvirlash. Toshkent.Fan.2005yil.

1. Psixologik (ruhiy) portret. Bu mavzuda musavvir oldida tasvirlanuvchining faqat tashqi qiyofasini emas, balki ichki dunyosini va ruhiy kechinmalarini ko'rsata olish kabi muammo turadi. Masalan, Abdulhaq Abdullaevning "Komil Yashin" portreti.
2. Bayram portreti. Bu yerda esa tasvirlanuvchini hashamdor, umuman bayram libosida ko'ramiz. Uning ko'krak nishonlari ham bo'lishi mumkin. Masalan, A. Shilovning "Yu.Gagarin" portreti.
3. Guruhli portret. Mavzu nomidan anglashilib turibdii, bu yerda, ya'ni tasvirda bir necha kishining portreti tasvirlanadi. Masalan, Rembrandtning "Doktor Tulpning anatomiya darsi".
4. Intim portret. Bu portret mavzusida oila, intim yoki ishq-muhabbat bilan bog'liq bo'lgan holatlar tasvirlanadi. Masalan, Rembrandtning "Danaya" asari bunga yaqqol misol bo'la oladi.
5. Tarixiy mavzudagi portret. Bunday mavzuda chizilgan portretida ham musavvir aniq tarixiy voqealarga murojaat qilib, o'z oldiga qo'yilgan muammoni yechishga harakat qiladi. Masalan, M.Nabievning "Amir Temur"portreti³.

Portret janri rangtasvir sohasida yillar davomida yangi qirralarda, yangi charanglarda namoyon bo'luvchi, yangidan-yangi inson obrazi, xarakteri, ichki dunyosini ochib beruvchi yo'nalish bo'lib, bu sohada ijod qiluvchi rassomlardan qalamtasvir, rangtasvir qonuniyatlari I chuqur bilish, inson ichki obrazini ochib berish uchun psixologik bilimlarga ega bo'lishi talab etiladi. "Men va dugonam" portreti yaratilishida ham ushbu mezonlarning tutgan o'rni beqiyos bo'lib, tasvirlanuvchining ichki dunyosi, o'y-hayoli, qalbidan o'tayotgan kechinmalarini mo'yqalam sehrida ochib berishda uning shaxsini yillar davomida o'rganganlik, yuz,tana tuzulishi xususiyatlarini kuzatganlik muhim ahamiyat kasb etadi. Portretning badiiy qimmati bu – tasvirlangan shaxsning asli, ya'ni modeliga o'xshashligi bilan baholanadi. Portretidan faqat tashqi ko'rinishning o'xshashligi, balki tasvirlangan shaxs va shaxslarning ruhiyati, individualligi, muayyan davr,

³N.Abdullaev.San'attarixi. Toshkent. San'at.2001yil.

ijtimoiy muhit, millatning aloxida xususiyatlari ham yaxlitligicha aks etadi. Shuningdek, rassomning o'z qahramoniga munosabati, uning o'zining dunyoqarashi, ijodiy va portretni talqin qilish uslubi portret obraziga sub'ektiv tuslanish beradi.

Ba'zi bir rassomlar muvaffaqiyatli chiqmagan portretlarda faqat tashqi qiyofani tasvirlash bilan qanoatlanib, tashqi sharoit, muhitni hisobga olishmaydi, hatto kishi qiyofasidagi ayrim xarakterli alomatlar ham o'z me'yoriga yetkazishmaydi. Tasvirlanuvchi qiyofasida turli xil alomatlar bo'lib, ularning ko'pchiligi tasodifiy paydo bo'lgan emas va ular yuzdagi tipik xususiyatlarni tashkil etadi. Portretnavis rassom uchun bunday belgi va alomatlardan to'liq foydalanish juda ham zarur chunki kishi qiyofasidagi alomatlar o'z navbatida tasvirlanuvchining xarakteriga xos holatlarni yuzaga chiqarishga ko'maklashadi⁴.

O'zbek tasviriy san'atida portret janri yuksak darajada rivojlangan, desak mubolag'a bo'lmaydi. Abdulhaq Abdullayev, Vladimir Kaydalov, Raxim Axmedov, Malik Nabiev va boshqa rassomlar ijodida yaratilgan portret janridagi shohasarlarning buning chinakam isbotidir.

XX asrning ikkinchi yarmida o'zbek portret san'ati yuksalib rivojlandi. Portret sohasida Lutfulla Abdullaev, Abdulhaq Abdullaev, Raxim Axmedov, Malik Nabievlar samarali ijod qildilar. Lutfulla Abdullaevning «Mulla to'ychi Toshmuhamedov», «Yo'ldosh Oxunboboyev» portretlari realistik an'analarda mohirona tasvirlangan⁵. Yillar o'tishi bilan esa ushbu janrga bo'lgan qiziqishi jodkorlar orasida yanada ortib, ranglar, chizgilar jozibasini yanada nafis asarlar yaratilina boshlandi.

Har bir rassom portret yaratishda o'z tajribasi, usuliga tayanadi. Bunga har xil kutilmagan holatda rang va texnikada bajarilgan portretlar dalil bo'la oladi. Baxodir Jalolovning kino rejissyori «Komil Yormatov» portreti bunga misol bo'la oladi. Shuning uchun portret yaratishda ulug' portret ustalari tajribasini o'rganib, ulardan unumli foydalangan holda «Men va dugonam» portretini yaratishda

⁴Egamov X., «Ranglar bilan ishlash» Toshkent, O'qituvchi, 1987 y., 8 b.

⁵N.Abdullaev.San'attarixi. Toshkent. San'at.2001yil.

portretchi rassom avval, tasvirlanuvchi bilan chuqurroq tanishib, ma'lum muddat uni kuzatib, suhbatlashib, uning asosiy xarakteri, xususiyatlarini, ichki va tashqi dunyosini yaxshi o'rganishi ishning mukammal yaratilgan san'at asariga aaylanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Raxim Xasanov. Tasviriy san'at asoslari. Toshkent. G'afur G'ulom.2009 yil.
- 2.Olim Samadov.Tasviriy san'at darslarida odam boshini tasvirlash. Toshkent.Fan.2005yil.
3. N.Abdullaev. San'at tarixi. Toshkent. San'at.2001yil.
4. Bulatov S.S.,“Rangshunoslik amaliy san'ati”Toshkent, 1985 y., 6-7 b.
5. Egamov X., “Ranglar bilan ishlash” Toshkent, O'qituvchi, 1987 y., 8 b.
6. Egamov A.,“Kompozitsiya asoslari” Toshkent, 2005 y., 4-5 b.